

Qishloq xo'jaligida qo'llanilgan tadqiqot natijalari

O'zR FA Bioorganik kimyo instituti ilmiy xodimlari tabiiy birikmalar asosida yangi avlod preparatlarini yaratish va ularning biotik hamda abiotik stresslarga ta'sirini molekulyar mexanizmlarini tadqiq etishda katta tajribaga ega. Instituti olimlari tomonidan shirinmiya ildizidan ajratib olingan glitsirrizin kislotasi va uning asosida qator preparatlar, jumladan, DAG-1 supramolekulyar kompleks preparati yaratilgan.

Sirdaryo viloyati fermer xo'jaliklarining 1000 gektardan ortiq sho'rlangan tuproqlarida ushbu yangi avlod DAG-1 va DAG-2 preparatlari joriy qilindi va ijobiy natijalarni berdi.

2020-yil O'zbekiston Respublikasi "O'z paxtasanoat" va Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan kelishilgan holda Sirdaryo viloyati "BAXT" va "MALIK" paxta tozalash zavodlarida O'zR FA Bioorganik kimyo instituti olimlari tomonidan yaratilgan yangi preparat bilan 900 tonna chigitga ishlov berildi va viloyat sharoitida yuzaga kelgan texnogen jarayonlar oqibati tufayli kech yoki qayta ekilgan maydonlarda g'o'zaning rivojlanishiga samarali ta'sir etgani ma'lum bo'ldi.



Ushbu natijalarga tayanib, Institut rahbariyati bu yil Sirdaryo viloyatida kuzatilgan texnogen jarayonlar oqibatida vujudga kelgan paxta hosildorligini me'yorida saqlab qolish uchun qilinayotgan harakatlarni e'tiborga olgan holda Sirdaryo fermer xo'jaliklari uchun 500 ga paxta maydonlarida shonalash davrida ishlov berish uchun yetarli miqdorda, shuningdek, 200 ta qadoqlangan idishlarda DAG-1 preparatini beg'araz yordam sifatida berishni rejalashtirmoqda.